

# TABIIY SHAROIT VA ATROF-MUHIT KOMPONENTLARINING MAVJUD HOLATI TAVSIFI

Bajardi: GM Fakulteti 415-Gurux  
Axmedova M




# REJA

- 1. Tabiiy sharoit va atrof-muhit komponentlarining tavsifi
- 2. AMBTB hujjatlarida tavsiflanadigan atrof-muhit komponentlarini tanlab olish
- 3. Atrof-muhit holati to'g'risidagi ma'lumotlarning ayrim manbalari (O'zbekiston sharoitida).



# KIRISH

- Oqibatlar inson faoliyati ta'sirida ekotizimlarda (atrof-muhitda) kechadigan murakkab jarayonlarning natijasidir. Shu sababli ekologik baholash va ekspertiza tadbirlariga, nafaqat oqibatlarni atroflicha baholash va ekspertiza qilish nuqtai nazaridan qaramoq lozim, balki oqibatlarni yuzaga keltiruvchi turli xil yo'nalishdagi, tezlikdagi jarayonlarni har to-monlama tahlil qilish, o'rganish nuqtai nazardan qaramoq lozim.



# TABIY SHAROIT VA ATROF-MUHIT KOMPONENTLARINING TAVSIFI


- Atrof-muhit to'g'risida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda AMBTB o'tkazilishini asosiy maqsadi mo'ljallanayotgan faoliyat bo'yicha qarorlar qabul qilishda ekologik omillarni hisobga olish ekanligini esdan chiqarmaslik muhimdir.





- Atrof-muhit holatini uzundan-uzoq tavsiflash qaror qabul qiluvchilar ishini yengillashtirmaydi. AMBTB jarayonida tabiiy muhitning qaror qabul qilish uchun kerakli bo'lgan komponentlari holatinigina tahlil qilini-shi yetarli hisoblanadi. Shuning uchun ta'sirlar bashorati davomida to'liq o'rganiluvchi o'zgarishlar yuz beradigan atrof-muhit komponentlarinigina tanlab olish zarur.

# AMBTB HUJJATLARIDA TAVSIFLANADIGAN ATROF-MUHIT KOMPONENTLARINI TANLAB OLISH





- Mo'ljallanayotgan faoliyat uchun avval bajarilgan dastlabki baholash hujjatlarini tahlil qilish atrof-muhitning qaysi tabiiy sharoitlari va komponentlarini tavsiflash zarurligini aniqlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Atrof-muhitni tavsifiashga tayyorgarlik ko'rishda kutilayotgan ta'sirlar chegarasini yana bir bor aniqlashtirib olish lozim.

- Tabiiy sharoit va atrof-muhit komponentlarini tavsiflash bilan bir qatorda faoliyat amalga oshiriladigan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhitning eng muhim tarkibiy qismlari aniqlanishi va tavisflanishi lozim. Chunki AMBTB o'tkazishda atrof-muhit bir butun tabiiy-ijtimoiy tizim sifatida qaraladi va atrof-muhitdagi o'zgarishlar aksariyat hollarda ijtimoiy-iqtisodiy harakterdagi oqibatlariga olib keladi.





# ATROF-MUHIT HOLATI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNING AYRIM MANBALARI (O'ZBEKISTON SHAROITIDA).

Tabiiy sharoit va atrof-muhit komponentlari	Ma'lumotlarni qayerdan olish mumkin
Atmosfera havosini ifloslanishi darajasi	Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
Iqlim	Uzgidromet fond ma'lumotlari
Suv resurslari miqdori va sifati	Uzgidromet fond ma'lumotlari, qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
Tuproq sharoitlari, o'simliklar	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
Resurslardan xo'jalik maqsadlarida foydalanish	Makroiqtisodiyot vazirligi
Ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar va aholi sog'ligi	Statistik hisobotlar, SES, aholi o'rtasidagi so'rovnomalar



- AMBTB jarayonida tabiiy sharoit nafaqat ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinishi, balki jamoatchilikka va qaror qabul qiluvchi shaxslarga uning noyobligi, qadrliligi, nozikligi va boshqalar to'g'risida xulosa chiqarishga imkoniyat yaratadigan so'zlar bilan tavsiflanishi lozim. Masalan, ma'lum biologik turning yashash muhitini tavsiflashda, bu turning kamyoibligi, uni yashash muhitini o'ziga xosligi va nozikligi kabi ma'lumotlar alohida ko'rsatilishi lozim.

# XULOSA

- Atrof-muhitga ta'sirlarni dastlabki baholash yordamida loyihalarni tanlash tizimining afzalligi lining moslashuvchanligidir: u loyihalarda mahalliy sharoitlar o'ziga xosliklari, qonunlar, manfaatdor tomonlar fikrlari va boshqa omillarni hisobga olish imkonini beradi. Bunday tizim AMBTB o'tkazish zarurligi to'g'risidagi qaror qabul qilish bosqichining o'zidayoq Yamoatchilik ishtirokiga imkoniyat yaratadi. Atrof-muhitga ta'sirlarni dastlabki baholash keng ko'lamlı AMBTB o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun xizmat qiladi va o'rganilishi talab etiladigan ahami-yatli ta'sirlarni aniqlashga xizmat qiladi. Dastlabki baholash ma'lum da-rajada to'liq baholashda bajariladigan ta'sirlarni aniqlash va bashorat qilish eng qulay loyiha yechimlarni izlash, jamoatchilikni ma'lumotlar bilan ta'minlash va ularni fikrini hisobga olish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi vazifalarni ham bajaradi.



# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1. Atrof Muhitga bo'ladigan ta'sirni baholash. Salohiddinov A.T., Mamatova S.A., Yusupova Toshkent-2013
- 2. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, 9 dekabr 1992 yil.
- 3. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza" to'g'risidagi qonuni, 25 may 2000 yil.
- 4. RD.118.0027719.5-91 - Suv obyektiga oqava suvlar tarkibida tash-lanayotgan ifloslantiravchi moddalarni yo'l qo'yilgan me'yori loyihacini ishlab chiqish va tayyorlash tartibi.

